



KASHTACHILIK SAN'ATI TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Ruziyeva Dilafro'z Muminovna

Buxoro davlat pedagogika instituti “Texnologik ta’lim” kafedrasи o‘qituvchisi

Raimova Nozigul Hamid qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti “Texnologik ta’lim” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. O‘zbek milliy kashtado‘zligi xalq hunarmandchilik san’atining eng qadimiy turlaridan bo‘lib, u xalqning o‘z turmushini go‘zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Maqolada talaba-qizlarning kashtachilik san’ati tarixi an’analarini ta’lim amaliyotiga tadbiq etish samaradorligi to‘g‘risida so‘z yurutiladi.

Kalit so‘zlar: kashtachilik san’ati, kashtado‘zlik rivoji, an’ana, jamiyat, ilm-fan, milliy kashtado‘zlik tarixi.

ИСТОРИЯ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ИСКУССТВА ВЫШИВКИ

Аннотация. Узбекская национальная вышивка – один из древнейших видов народного ремесленного искусства, возникший в результате стремления людей сделать свою жизнь красивой. Целью статьи является обоснование об эффективности внедрения истории и традиций преподавания вышивки студентам в учебную практику.

Ключевые слова: искусство вышивки, развитие вышивки, традиция, общество, наука, национальная вышивка, история.



HISTORY AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE ART OF EMBROIDERY

Annotation: Uzbek national embroidery is one of the oldest types of folk handicraft art, which originated as a result of people's desire to make their life beautiful. About the effectiveness of the introduction of the history and traditions of teaching embroidery by students into educational practice.

Keywords: embroidery art, embroidery development, tradition, society, science, national embroidery, history.

Xalq amaliy san'ati va milliy hunarmandchilik an'analari tarixdan avloddan - avlodga o'tib kelishi bilan birga taraqqiyotni yangi sifatiga ega bo'lmoqda, bu jarayon ayniqsa, hozirgi davrda yanada yuqori samaralarga erishuv imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda. Shahar va qishloqlarda yashovchi yoshlarning sevimli kasbi va xalq amaliy san'atidan kulolchilik, yogoch o'ymakorlik, ganchkorlik, naqqoshlik, kandakorlik, zargarlik, chitgarlik, gilamchilik, kashtachilik va hokazolar avloddan-avlodga o'tib kelayotgan kasblardandir. Bu kasblar kishilarni ma'naviy olamini boyitish, badiiy didini shakllantirish estetik didini tarbiyalaydi.

Hozir Respublikamizni barcha viloyatlarida tiklanib borayotgan hunarmandchilik va amaliy san'atning noyob turlari rivojlantirilmoqda. U o'zining tarixiy taraqqiyot bosqichida ko'p yillar va asrlar bosib o'tgan, goh yuksalgan, goh pasaygan, lekin unda badiiy an'analarning avloddan - avlodga o'tishi hech qachon to'xtamagan.

O'zbekiston o'zining kashta chevarlari bilan mashhur va xalq san'atining ko'p asrlik an'analarni ardoqlab, asrab kelmoqda. Shuningdek, milliy an'analarni saqlabgina qolmay, ijodiy boyitib amaliy san'atning yangi milliy turlarini yaratib



kelmoqda. Kashtalar uylar va kiyim- kechaklarni bezash uchun qo‘llanilgan. Ular qadim zamonlardan beri o‘zbek xalqi orasida keng yoyilgan.

Uy devorlari, taxmonlar, ko‘rpa - to‘shaklar, har xil mayda uy - ro‘zg‘or buyumlari, kiyim - kechaklarning ayrim qismlari kashta bilan bezatiladi, bosh kiyimlarga ham kashta tikiladi. Uylarning devorlarini bezatadigan palaklar, so‘zanalar, gulko‘rpalar, zardevorlar O‘zbekistondan tashqarida ham mashhurdir.



1-rasm: Kashta namunalari

O‘zbek xalq ustalari qo‘llari bilan tikilgan kirpech, so‘zana, zardevor, gulko‘rpa, choyshab kabilar Germaniya, Belgiya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Hindiston, Afg‘oniston kabi xorijiy, shuningdek, mamlakatimizning Farg‘ona vodiysiда faqat xonardonlarda emas, balki muzeylarda doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. Hozirgacha buyumlar o‘ziga xos go‘zallik, nafis bezaklarning rang – barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda.

Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. O‘zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog‘liq holda barcha kasb – hunarlari bilan birgalikda rivoj topgan. Kashtachilik san’atining eng qadimiysi saqlanmagan. 14–15 asrlarga mansub miniatyurlar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko‘rish mumkin. Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo Amir Temur saroyida o‘zbek milliy kashtalarini ko‘rganini kundaligida yozib qoldirgan. 1467-yili Kamoliddin Bexzod



“Zafarnoma”ga ishlagan “Temur taxtda” miniyatyrasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan. Qadimdan ipakchilik rivojlangan vatanimiz hududida nafis ipak iplar bilan kashta tikish xalq orasida keng tarqalgan. Kashtachilik hunari o‘zining ko‘p asrlik rivojlanishi tarixida xalq turmushi, uning an’anaviy yashash tarzi, urf-odati, jo‘g‘rofik o‘rni bilan o‘zaro chambarchas bog‘langan. Kashtachilik hunari bilan ayollarning deyarli barchasi shug‘ullanishgan. Qiz bola yoshligidan boshlab, kashta tikishga o‘rgatilgan. Shunisi muhimki, hunarmandchilikning boshqa turlarida shogirdlik mashaqqatini uzoq muddat bosib o‘tishga to‘g‘ri kelsa, kashtachilik maxsus bilimni talab qilmagan. Kashtachilik san’ati o‘zbek ayollarini ijodida eng ommaviy hunar sanalib, u oddiy xalqning estetik dunyoqarashini aks ettiribgina qolmay, xalq og‘zaki folklori bilan o‘zaro uzviy bog‘langan.

Kashtachilikning boshqa hunarlardan farqi shundaki, aksariyat hollarda kashtachilik buyumlari bozorga mo‘ljallanmagan, asosan xonodon ehtiyojini qondirish, urf-odatlarni davom ettirish uchun tikilgan. Shunday qilib an’anaviy kashtachilik o‘zbek xalqi hayotining hamma jahbalarini qamrab olgan va moddiy madaniyatning buyumlari va ashyolaridan bo‘libgina qolmay, balki xalqning dunyoqarashi va milliy tafakkurining chuqur qatlamlarini aks ettirgan.

Respublikamizning istiqlolga erishishi, yo‘qolib borayotgan qadimgi milliy an’anaviy hunarmandchilik va xalq amaliy san’atini qayta tiklashga va unga yosh avlodni qiziqtirishga keng yo‘l ochib berdi.

Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay O‘zbekiston xalqi avloddan-avlodga o‘tib kelgan o‘z tarixiy va milliy qadriyatlarini hamda o‘ziga xos an’analarni saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi. Ayni paytda qadriyatlarimizni boyitish, milliy mustaqillik mafkurasini shakllantirish jarayonida an’anaviy xalq hunarmandchiligi va amaliy san’ati tarixini o‘rganish, ko‘plab yo‘qolib ketgan turlarni qayta tiklash xalqimizning beباho merosini dunyoga tanitishga xizmat qiladi. Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, “Biz ma’naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o‘zlikni anglashning o‘sishidan, xalqning ma’naviy



sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz.” Qadimdan ipakchilik rivojlangan vatanimiz hududida nafis ipak iplar bilan kashta tikish xalq orasida keng tarqalgan.

Kashtachilik san'atining tarixi va uning rivojlanishi O‘zbek milliy kashtachiligi amaliy san’atning eng qadimiylaridan biri bo‘lib u xalqning o‘z turmushini go‘zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashta (fors tilida – chizilgan, tortilgan) amaliy bezak san’atining keng tarqalgan turi: igna bilan tikib tushirilgan gul, tasvir, naqsh demakdir. Kashtachilik san’ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O‘zbek xalq ustalari qo‘llari bilan tikilgan kirpech, suzana, zardevor, gulko‘rpa, choyshab kabilalar Germaniya Federativ Respublikasi, Belgiya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Hindiston, Afgoniston kabi xorijiy, shuningdek, mamlakatimizning Fargona vodiysida faqat xonardonlarda emas, balki muzeylarda doimiy ekspozistiyaga aylanib qolgan. hozirgacha buyumlar o‘ziga xos go‘zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda.

XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi. Mashinada kashtalarning ko‘p ishlab chiqarilishi ularning badiyiligiga putur etkazdi. Qo‘1 kashtalari unutila boshlandi. Lekin ayrim xillarigina saqlanib qoldi. O‘zbek kashtachiligi qo‘shni xalqlar kashtachiligi ta’sirida boyidi va rivojlandi. O‘zbek kashtalariga nazar solsak, unda Hind, Xitoy, Rus, Afgon, Qozoq, Qirg’iz va Tojik kashtachiliklarining usul va uslublarini uchratamiz. Xalq badiiy hunarmandchilik mahsulotlari faqat bizning mamlakatimizda emas, balki chet mamlakatlarida ham cheksiz talab qilinadi. Pliniyning aytishicha, Vavilon kashtachiligi qadimdan mashhur bo‘lib, matoga turli rangdagi iplar bilan kashta tikishni o‘sha yerda kashf etishgan.



Keyinchalik Vavilon Rim imperiyasi tarkibiga kirdi ipak, zar yoki jun ip qo'shib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan shuhrat qozongan. Kashtachilik san'atining an'analari Vizantiyada ham rivoj topgan.

XIII va XV asrlarda Kichik Osiyo doirasida paydo bo'lgan hamda Vizantiya imperiyasini barbod qilgan Usmoniy turklar ham ushbu san'atga o'zlarining munosib ulushlarini qo'shganlar. Qrim va Kavkazning qaeridaki Vizantiya madaniyati uzoq vaqt kuchli ta'sir o'tkazgan bo'lsa o'shu yerda kashtachilik rivojlanavergan. Qadimgi Rus ham Vizantiyaga taqlid qilib kashtachilik san'atini o'rgangan. Rus kashtasi gullarining xarakteriga va tikilish usullariga ko'ra juda turli-tumandir. Popop (yo'rma) chokli kashta tikish Olonets, Vologda viloyatlarida keng tarqalgan.

Bu san'atda har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi. Chunonchi, o'zbek kashtalarida o'simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko'p bo'lsa, rus kashtachiligida geometrik, o'simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko'p tasvirlanadi. Qozoq va Qirg'iz kashtachiligida esa ko'proq hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi.

Xalq amaliy san'ati va milliy hunarmandchiligi an'alarini tarixdan avloddan-avlodga o'tib kelish bilan birga taraqqiyotni yangi sifatiga ega bo'lmoqda, bu jarayon ayniqsa, hozirgi davrda yanada yuqori samaralarga erishuv imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda. Shahar va qishloqlarda yashovchi yoshlarni sevimli kasb va xalq amaliy san'atidan kulolchilik, yog'och o'ymakorligi, ganchkorlik, naqqoshlik, kandakorlik, zargarlik, chitgarlik, kashtachilik va hokazolar avloddan- avlodga o'tib kelayotgan kasblardandir. Bu kasblar kishilarni ma'naviy olamini boyitish, badiiy didini shakllantirish estetik didini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o'zbek xalq amaliy san'ati kishilarni badiiy-axloq jihatdan tarbiyalab, ularning estetik dunyoqarashlarini shakllantirishda hamda madaniy darajasini yuksaltirishda eng zarur manbaalardan biri hisoblanadi.




2-rasm: Kashta namunaları

Hozir Respublikamizni barcha viloyatlarida tiklanib borayotgan hunarmandchilik va amaliy san'atning noyob turlari rivojlantirilmoqda. U o'zining tarixiy taraqqiyot bosqichida ko'p yillar va asrlar bosib o'tgan, goh yuksalgan, goh pasaygan, lekin unda badiiy an'analarning avloddan - avlodga o'tishi hech qachon to'xtamagan.

O'zbekiston o'zining ko'pgina chevarlari bilan mashhur va xalq san'atining ko'p asrlik an'analarini ardoqlab, asrab kelmoqda, shuningdek, an'analarni saqlabgina qolmay, ijodiy boyitib amaliy san'atning yangi milliy turlarini yaratib kelmoqda. Kashtalar uylar va kiyim-kechaklarni bezash uchun qo'llanilgan. Ular qadim zamonlardan beri o'zbek xalqi orasida keng yoyilgan. Uy devorlari, taxmonlar, ko'rpa - to'shaklar, har xil mayda uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim kechaklarning ayrim qismlari kashta bilan bezatiladi, bosh kiyimlarga ham kashta gikiladi. Uylarning devorlarini bezatadigan palaklar, so'zanalar, gulko'rpalari, zardevorlar O'zbekistondan tashqarida ham mashhurdir. Arxeologik topilmalar kashtado'zlikning deyarli barcha xalqlarda qadimiyligini, iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda har bir xalqning madaniyati, san'ati, kasb-hunar turlari bilan birga, ularning ta'sirida rivoj topganini ko'rsatadi. Kashtado'zlikning paydo bo'lishi teridan qilingan kiyimlarda bog'lam va choklarning yuzaga kelishi bilan



bog‘liq. Davrlar davomida toshdan suyak bigizlarga, undan metall bigizlarga o‘tish bilan, shuningdek, to‘qish, mato to‘qish, bo‘yash va boshqa ishlar bilan bog‘liq. Kashtado‘zlik taraqqiyotini Qadimiy Osiyo, Yevropa, Amerika madaniy yodgorliklari, adabiy manbalardagi kashtalar tasvirida, shuningdek, saqlanib qolgan Kashtado‘zlik namunalarida kuzatish mumkin. Kashtado‘zlik mahsulotlarining eng qadimiy nusxalari saqlanmagan. Kashtado‘zlik rivojlangan xalqlarda unga tasviriy san’atning ta’siri katta bo‘lgan. XI-asrga oid ingliz kashtalarida jang lavhalari aks ettirilgan.



3-rasm: Milliy kashtachilik san’atidan namuna

Qadimiy an’analarga ko‘ra o‘zbek qizlari – bo‘lajak kelinchaklar seplari, har xil kashtachilik buyumlarini o‘zlari tayyorlaganlari lozim edi. Kashtalar qanchalik nozik, chiroyli bo‘lsa qayliq shunchalik yuqori baholanar edi. Qizlar 7 – 9 yoshdan boshlab kashta tikishga o‘rgatilar edi. Ular 3 – 4 yildan keyin mustaqil kashta tika boshlaydilar.



Xalq amaliy san'ati va milliy hunarmandchiligi an'analarini tarixdan avloddan-avlodga o'tib kelish bilan birga taraqqiyotning yangi sifatiga ega bo'lmoqda, bu jarayon ayniqsa, hozirgi davrda yanada yuqori samaralarga erishuv imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda. Shahar va qishloqlarda yashovchi yoshlarni sevimli kasb va xalq amaliy san'atidan kulolchilik, yog'och o'ymakorlikgi, ganchkorlik, naqqoshlik, kandakorlik, zargarlik, chitgarlik, kashtachilik va hokazolar avloddan - avlodga o'tib kelayodgan kasblardandir. Bu kasblar kishilarni ma'naviy olamini boyitish, badiiy didini shakllantirishda estetik didini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o'zbek xalq amaliy san'ati kishilarni badiiy axloqiy jihatdan tarbiyalab, ularning estetik dunyoqarashlarini shakllantirishda hamda madaniy darajasini yuksaltirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S. Bulatov. "O'zbek xalq amaliy bezak san'ati". O'quv qo'llanma. -T.: "Mehnat" 1991-yil.
2. R.S. Shermuhammedov, M.M. Parpiyeva, G.S. Sharipova "Xalq hunarmandchiligi". Darslik. "Tafakkur" Toshkent 2021-yil.
3. X.X. Murodov. "Amaliy va bezak san'ati". O'quv qo'llanma. -T.: "Ijod print", 2020-yil.
4. Q.M. Abdullayeva, M.A. Maksumova, M. Raximjanova. "Gazlamaga badiiy ishlov berish". -T.: "Cho'lpon", 2011-yil.
5. X.T. To'lqinova, D.A. Rajabova Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash // O'quv qo'llanma. Toshkent 2024-yil.
6. M.A. Maksumova, Q.M. Abdullayeva. "Xalq hunarmandchiligi". - T.: TDPU, 2008-yil.
7. G.M. Anarkulova, G.M. Abduqodirov, X.T. To'lqinova. Texnologiya ta'limi praktikumi. Darslik. Toshkent 2018-y.



8. Muminovna R. D. et al. O 'ZBEKISTONDA XALQ AMALIY SAN'ATI VA MILLIY HUNARMANDCHILIKNING RIVOJLANISHI //Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi. – 2024. – Т. 7. – №. 4. – С. 157-165.
9. Ruzieva D. CLASSIFICATION OF SOFTWARE EDUCATIONAL TOOLS FOR USE IN THE EDUCATIONAL SYSTEM //International Conference On Higher Education Teaching. – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 41-45.
10. Ruzieva D. M. FEATURES AND ADVANTAGES OF THE STRUCTURE OF BAKED THREADS USED IN THE PREPARATION OF SEWING PRODUCTS //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 17. – С. 401-408.
11. Гафурова Н. Т., Арипова А. Н. К., Рузиева Д. М. РОЛЬ ЯЗЫКА В РАЗВИТИИ ВЫСЩЕГО ОБРАЗОВАНИЯ //Архивариус. – 2021. – Т. 7. – №. 8 (62). – С. 20-23.
12. Muminovna R. D. et al. O'ZBEKISTONDA XALQ AMALIY SAN'ATI VA MILLIY HUNARMANDCHILIKNING RIVOJLANISHI //Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi. – 2024. – Т. 7. – №. 4. – С. 157-165.
13. ГАФУРОВА Н. Т., АРИПОВА А. Н. К., РУЗИЕВА Д. М. Учредители: Серенити-Груп, Буткевич Виктор Васильевич //АРХИВАРИУС Учредители: Серенити-Груп, Буткевич Виктор Васильевич. – 2021. – Т. 7. – №. 8. – С. 20-23.
14. Ubaydillayevna D. N. et al. ZAMONAVIY O'ZBEK MILLIY LIBOSLARI NAMUNALARINI TAYYORLASH ORQALI YOSH AVLODGA AJDODLARDAN QOLGAN MEROSNI O'RGATISH //PEDAGOGS. – 2024. – Т. 53. – №. 1. – С. 18-24.
15. Рузиева Д. М. СЕКРЕТЫ ШИТЬЯ И ЕГО СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 35. – С. 282- 286.
16. Kazakov, F., Rajabov, I., Umurov, J., Ruziyeva, D., & Aripova, A. (2021, November). Methods to improve hackles in the production of quality yarn. In



Journal of Physics: Conference Series (Vol. 2094, No. 4, p. 042091). IOP Publishing.

17. Muminovna R. D. Tabiiy Ipak Iplarining Xususiyatlarini Tahlil Qilish Asosida Ipak Tolali Gazlamalarining Sifati Va Assortimentini Oshirish Mezonlari //Miasto Przyszlosci. – 2024. – C. 323-326.
18. Muminovna R. D. TA'LIM TIZIMIDA FOYDALANISHGA MO'LJALLANGAN DASTURIY TA'LIM VOSITALARI TASNIFI //Наука и технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 3.
19. Muminovna R. D. GAZLAMALARNING KIRISHISHI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNI O'RGANISH //Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi. – 2024. – Т. 7. – №. 4. – C. 150-156.
20. Rayimova D. D. et al. Texnologiya ta'limi praktikumi fanini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – C. 616-619.
21. Muminovna R. D. TIKUV BUYUMLARINI TAYYORLASHDA ISHLATILADIGAN PISHITILGAN IPLARNING TUZILISH XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI //SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. – 2023. – Т. 6. – №. 10. – C. 21-25.